

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY TA‘LIM VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Firuz Tuyg‘unovich Rashidov

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o‘qituvchisi,
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tushunchasi, diniy va dunyoviy ta‘lim tushunchasi, ta‘lim olish huquqi va asoslari, diniy ta‘lim olish imkoniyatlari, diniy va dunyoviy ta‘lim olishning normativ-huquqiy asoslarini tahlil qilish bilan birga diniy ta‘lim sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan faoliyatga oid masalalarga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Ta‘lim, ilm, bilim, diniy ta‘lim, diniy qadriyat, dunyoviy va diniy ta‘lim uyg‘unligi, uzluksiz ta‘lim, majburiy ta‘lim, konfessiya, malakali kadr.*

ABSTRACT

This article focuses on the concept of education in the Republic of Uzbekistan, the concept of religious and secular education, the right and basis of education, opportunities for religious education, the analysis of the legal framework of religious and secular education, as well as activities in the field of religious education.

Keywords: *Education, science, knowledge, religious education, religious values, combination of secular and religious education, continuing education, compulsory education, denomination, qualified personnel.*

АННОТАЦИЯ

Эта статья направлена на анализ таких понятий как образование в Республике Узбекистан, религиозное и светское образование, право и основы получения образования, нормативно-правовые основы получения религиозного и светского образования, а также уделено внимание задачам, касающихся деятельности, которая должна быть осуществлена в сфере религиозного образования.

Ключевые слова: *Образование, знание, религиозное образование, религиозная ценность, гармония религиозного и светского образования, непрерывное обучение (образование), обязательное образование, конфессия, квалифицированный кадр.*

KIRISH

XXI asrga kelib ilm-fan aql bovar qilmas darajada taraqqiy etdi. Bu insoniyatning ilm egallashga, uni hayotga tatbiq etishga bo‘lgan intilishlari

mahsulidir. Jahonda yetakchi bo‘lib turgan davlatlar taraqqiyotining asosi ham ta‘lim va ilm olishga qaratilgan investitsiya, e‘tibor natijasidir.

Ilm o‘rganish, uning hosilalarini hayotga tatbiq etish zamon talabi bo‘lishi bilan birga, asrlar davomida insoniyatning kundalik yumushi, iymon-e‘tiqodiga aylangan qadriyat hisoblanib, ilm egalari doimo sharaflanadi.

Ilm turfa xil qarash va yondashuvlarga ega shaxslar, jamoalar, jamoat tashkilotlarining o‘zaro sog‘lom kurashi o‘laroq raqobat muhitida tez rivojlanadi. Davlat esa taraqqiyotga homiylik qiladi, sharoit yaratib imkoniyatlar beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi har kimning bilim olish huquqiga ega ekanligi, bepul umumiy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanishi, maktab ishlari davlat nazoratida ekanligini kafolatlaydi.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun esa ta‘lim tizimining dunyoviy xususiyatga ega ekanligi prinsipini e‘tirof etib, ta‘lim – ta‘lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta‘lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon deb ta‘rif beradi.[1]

Ta‘lim olish huquqi jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, hammaga teng kafolatlanishini, ta‘lim olish huquqi: ta‘lim tashkilotlarini rivojlantirish; ta‘lim tashkilotlarida innovasion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innovasion texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish; ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta‘lim olishni tashkil etish; kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta‘limni va boshlang‘ich professional ta‘limni bepul olish; oilada yoki mustaqil o‘qish orqali ta‘lim olgan fuqarolarga, shuningdek, umumiy o‘rta ta‘lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o‘tgan davlat ta‘lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta‘minlanishini nazarda tutadi[2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston ko‘pmillatli va ko‘p konfessiyali davlat bo‘lib, ayni paytda mamlakatda umumiy o‘rta ta‘lim yetti tilda olib boriladi. Umumiy o‘rta ta‘limning mahalliy tillarda olib borilishi Konstitutsiya bilan kafolatlab qo‘yilgan mamlakat hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlash bilan birga ularning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

“Ta’lim”, “bilim”, “ilm” so‘zlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bir-biriga ma’no jihatidan o‘xshash hisoblanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida qayd etilishicha, “ta’lim” so‘zi (arabcha – “o‘rgatish”, “o‘qitish”, “ilm berish”, “ma’lumot”) bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi.[3]

Lug‘atning ikkinchi jildida “ilm” so‘ziga berilgan izohda (ilm – arabcha bilim; fan; nazariya) o‘qish-o‘rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko‘nikma, ma’lumot hisoblanadi.[4:195]

Amaliyotda “ilm” so‘zi ko‘proq fundamental tadqiqotlar olib borish, biror manbani chuqur o‘rganib tahlil qilish, shuningdek, diniy manbalarni o‘rganish va tahlil qilishga nisbatan qo‘llanilsa, ta’lim so‘zi davlat tomonidan o‘rnatilgan standartlar asosida ma’lum yosh kategoriyalariga muayyan fan yoki uning bo‘limlarini o‘rgatishga qaratilganligi bilan farqlanadi.

Muqaddas islom dini ta’limotlarida ham ilm olish farz qilib belgilangan bo‘lib, “Olimlar payg‘ambarlarning merosxo‘rlaridir”, deyiladi. Ilm olish dunyoda azizlik, oxiratda sharaf hisoblanadi. Qur’oni Karimdagi birinchi nozil etilgan oyatning birinchi so‘zi ham “Iqro” – “o‘qi” so‘zi bo‘lib, islom ta’limoti insonlarni ilm olishga da’vat etadi. Asrlar davomida islom olamida ma’lum va mashhur bo‘lgan muhaddis, mufassirlar ham o‘z hayotlarini ilm o‘rganish va uni targ‘ib qilishga bag‘ishlaganlar.

Mashhur faqih Abu Lays Samarqandiy: “Bilgilki, har bir muslim va muslimaga din ishlarida muhtoj bo‘ladigan tahorat, namoz va shariatning boshqa hukmlari hamda hayotiy ishlarida zarur bo‘lgan narsalarni biladigan miqdorda ilm o‘rganish farzdir”, deydilar.[5]

O‘zbekiston Respublikasida dunyoviy va diniy ta’lim olish muayyan normativ hujjatlarga asoslanib, uning o‘ziga xos talab va tartiblari belgilab qo‘yilgan.

Jumladan, Ta’lim to‘g‘risidagi qonunda ta’limning yetti turi ajratilib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Maktabgacha ta’lim va tarbiya; umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim; professional ta’lim; oliy ta’lim; oliy ta’limdan keyingi ta’lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta’lim. Ushbu ta’lim turlari belgilangan tartibda davlat ta’lim standartlari asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida guruhlar yoshga doir toifalar yoki yoshga doir bo‘lmagan toifalar bo‘yicha joylashtirilishi mumkin. Nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar bir yoshdan qabul qilinsa, davlat maktabgacha ta’lim muassasalari uch yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni qabul qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim yetti yoshdan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda tashkil etilib, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi. [6]

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgan bo'lib, ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta'lim olish huquqi ularning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar ta'minlanadi.[7]

Diniy ta'lim muassasalari, tashkilot va birlashmalarining davlatdan ajratilganligi ularning fuqarolik jamiyatida alohida institut sifatida mavjudligini anglatadi. Shunday ekan, ularning davlat va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro munosabatlardagi o'rni va aloqalarini tadqiq etish, o'rganish va aniqlash lozim bo'ladi.

Diniy ta'lim faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 martdagi Diniy ta'lim muassasalarining faoliyatini lisenziyalash to'g'risidagi nizom va 2018 yil 31 maydagi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish tartibi to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi. Nizom talablariga ko'ra diniy ta'lim sohasida faoliyatni amalga oshirish uchun: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga majburiy rioya etish; diniy fanlarning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishilgan o'quv konsepsiya, o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq o'qitilishini tashkil etish; voyaga yetmagan shaxslarni ularning irodasi, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (vasiylar)ning xohishiga xilof ravishda o'qitish; ta'lim jarayonida urush, zo'ravonlik, prozelitizm va har qanday missionerlik faoliyati targ'ib qilinishiga, mamlakat xavfsizligi va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, jamiyatning huquqiy va ma'naviy asoslari, fuqarolar tinchligi, millatlararo va dinlararo totuvlik buzilishiga, O'zbekiston to'g'risida noto'g'ri axborotlar tarqatilishiga hamda uning tarixiy, madaniy va ma'naviy boyliklari buzib ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik; diniy fanlarning tegishli diniy ma'lumotga va diniy tashkilotlarni boshqarish tegishli markaziy organining ruxsatnomasiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan o'qitilishini tashkil etish va ularni davriy attestatsiyadan o'tkazish; o'quv jarayonida esa chet elda nashr etilgan tegishli lisenziyaga ega bo'lgan adabiyotlardan foydalanish kabilar talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 23 avgustda qabul qilingan "Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim ishlarini va faoliyatni yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risida"gi qarorida esa islom instituti va o'rta maxsus islom bilim yurtlarida joriy etilgan ta'lim standartlari, o'quv rejalari hamda talabalarning qabul qilingan davlat

me'yorlariga muvofiq diniy va dunyoviy bilimlar olayotganligini inobatga olib, mazkur o'quv yurtlarining bitiruvchilariga beriladigan diplomlar davlat ta'lim hujjati sifatida e'tirof etilishi hamda bitiruvchilarga davlat oliy ta'lim tizimida o'qishni davom ettirish huquqi berilishi nazarda tutilgan. Hozirgi paytda mamlakatimizda jami 16 ta diniy konfessiya rasmiy ro'yxatdan o'tgan bo'lib, diniy tashkilotlar soni 2298 tani tashkil etadi (01.2021). Ayni paytda 10 ta islomiy (2 ta ayol qizlar uchun) o'rta maxsus bilim yurtlari, 3 ta Oliy islomiy diniy ta'lim muassasalari, 1 ta Rus pravoslav cherkovi va 1 ta to'liq Yevangel xristianlari cherkovining seminariyalari faoliyat olib bormoqda.[8]

Diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish tartibi to'g'risidagi nizomga ko'ra diniy ta'lim muassasalarini tashkil etish uchun markaziy boshqaruv organining diniy ta'lim muassasasini tashkil etish, uning ustavini tasdiqlash va rahbar organlarini saylash (tayinlash) bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qaror nusxasi, diniy ta'lim muassasasining davlat tilidagi ustavi nusxasi; diniy ta'lim muassasasining rahbar organi a'zolari to'g'risidagi nizomda ko'rsatilgan shakldagi ma'lumotlar taqdim etilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilib lisenziya asosida faoliyat olib borish huquqiga ega bo'ladi.

Diniy ta'lim muassasalarida ta'lim olishga umumiy o'rta ta'lim muassasalarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshirilgan umumiy o'rta ta'limdan so'ng ruxsat etiladi. Xususiylar diniy ta'lim berish qonun bilan cheklangan bo'lib, diniy ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasida belgilangan davlat ta'lim standartlari va talablariga muvofiq dunyoviy fanlarni o'qitish lozimligi belgilangan.

Jamoatchilik o'rtasida diniy ta'lim olishga bo'lgan intilish yuqori bo'lib, amaldagi diniy ta'lim qamrovi aholi ehtiyojlarini qondira olmaydi. Bu esa yoshlar va turli aholi qatlamlarining ruxsat etilmagan tarzda (hujralarda) diniy ta'lim olish bilan birga xorijiy mamlakatlardagi turli diniy ta'lim muassasalarida ta'lim olish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Dinlardagi mazhab va yo'nalishlarning turlicligi, ayrim xorijiy mamlakatlarda dindan mafkuraviy maqsadlarda foydalanish holatlarining yuqoriligi, yoshlarning diniy dunyoqarashida azaliy diniy qadriyatlarga yot bo'lgan qarashlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Ayni paytda aholi o'rtasida sof diniy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetmaslik, turli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jamiyatda dunyo va din munosabatlari balansini tushunmaslik, dinga chuqur berilish orqali jamiyatga qo'shila

olmaslik va yolg'izlanish yoki aksincha o'ta zamonaviylashib ketish orqali mavjud qadriyatlarni pisand qilmaslik holatlari uchramoqda.

Dunyoda va mamlakatimizda ro'y berayotgan voqea-hodisalar, ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma'rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda.

Mana shunday talab va ehtiyojlardan kelib chiqib 2018 yil 16 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan yetakchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblangan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etilib:

diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish;

dinni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadigan buzg'unchi yot g'oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish;

jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish;

jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish;

globallashtirish sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va e'tiqod erkinligiga tahdid tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish;

diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.[9]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi o'rganishlardan kelib chiqib, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlikni yanada yaxshilash, diniy ta'lim faoliyatini muvofiqlashtirish orqali kutilgan natijalarga erishish uchun quyidagi taklif va xulosalarni ilgari surishni masadga muvofiq deb topdik:

1) diniy ta'lim berish bilan bog'liq normativ hujjatlarni bir tizimga keltirish va muvofiqlashtirish;

2) faoliyat olib borayotgan turli konfessiyalarga xos 15 ta diniy ta'lim muassasalari dasturlaridan davlat standartlari asosida dunyoviy fanlar ham o'rin olganligini hisobga olib ta'lim to'g'risidagi qonunga diniy ta'limni tartibga solish bilan bog'liq normalar kiritish;

3) O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining mamlakatdagi ham diniy, ham dunyoviy bilim berishga, dinni ilmiy nuqtai nazardan o'rganishga iqtisoslashgan yagona oliy ta'lim muassasasi ekanligidan kelib chiqib uning mavqeini yanada oshirish va barcha diniy ta'lim muassasalarining ta'lim standartlarini akademiya orqali muvofiqlashtirishni yo'lga qo'yish;

4) milliy va diniy qadriyatlarni o'zida aks ettirgan, talaba yoshlar bilan birga keng kitobxonlarga ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ko'nikmalarni beruvchi o'quv va ommabop adabiyotlar tayyorlashni takomillashtirish lozim.

Zero, jahon ijtimoiy tarmog'iga ulangan, barcha sohalarda dunyo hamjamiyatiga tobora integratsiyalashib borayotgan O'zbekistonda yosh avlodni milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ruhida tarbiyalash, zamon talablari va aholi ehtiyojlariga mos diniy va dunyoviy ta'lim berish tizimi orqali fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va mamlakat kelajagini ta'minlash mumkin.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги қонуни www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги қонуни 5-модда. www.lex.uz
3. Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, тўртинчи жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. – Б.27
4. Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, иккинчи жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. – Б.195
5. Абу Лайс Самарқандий. Бустонул орифийн. <https://islom.uz/>
6. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги қонуни. 9-модда. www.lex.uz
7. Ўзбекистон Республикасининг Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонуни 8-модда. www.lex.uz
8. <https://religions.uz/>Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги дин ишлари бўйича қумита расмий сайти
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ 5416-сонли Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги фармони. 16.04.2028й / www.lex.uz